

O'quvchilar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olish hamda yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilish bo'yicha davra suhbat tadbiri tashkil etildi

Joriy yilning **27-sentabr kuni** akademik litseyida Samarqand shahar IIOFMB XPB inspektor psixologi **katta leytenant SH.T.Laxanov** ishtirokida o'quvchilar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olish va giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va kuchli ta'sir qiluvchi preparatlarning salbiy oqibatlari hamda yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilish bo'yicha davra suhbat tadbiri tashkil etildi.

Targ'ibot-tashviqot ishlari orqali yoshlarda vatanparvarlik ruhini uyg'otish, "Jinoyatga jazo muqarrar" bo'lishi hamda yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilish borasida so'z yuritildi.

Suhbat davomida o'quvchilar o'zlarining mavzuga doir savollarini berish orqali kerakli javoblarni olishdi.







SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati